



Usarova Gulsevar Bekboy qizi

2007 yil Samarqand viloyati Nurobod tumani Ittifoq mahallasida tug'ilgan va shu yerdagi 33 umumiy o'rta ta'lim maktabini tamomlagan. 2025 yil ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikat hamda ingliz tilidan ham milliy sertifikat ega bo'lgan. Hozirda Samarqand davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishining birinchi kurs talabasi.

KECHIRING ONA

Men nodon farzandman kechiring ona
Faqat dardim aytib qiynab man sizni
Ko'z yoshimdan to'ldi bugun paymonam
Ayting qachon ko'nglingiz oldim men sizni

Siz bilan nurga to'lar koshonam
Yorug'dir hatto zulmat tunlar ham
Bir og'iz so'zingiz bo'lar malham
O'zingizni ham o'ylangda onam

Sochingizga oqlar tushibdi ona
Kasal bo'lsam boshim uzra parvona
Dunyoda onalar ichra yagona
Qachon o'zingizni o'ylaysiz ona

Bolam deb doimo yelib yurdingiz
Hech qachon hech kimdan kam qilmadingiz
Ba'zan og'ritdima nozik ko'nglingiz
Kechiring onajon ahmoq qizingiz

Hech kim bosa olmas aslo o'rningiz
Yaratganim uzoq qilsin umringiz
Men uchun sodiq do'st yolg'iz o'zingiz
Sizni yaxshi ko'rar ona qizingiz

AKAM

Mehribonim ishonganim siz akam
Siz tufayli bo'lmadim hech kimdan kam
Tilagim shu sira chekmang qayg'u g'am





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Baxt,omad doim bo'lsin sizga hamdam

Ne xohlasam shu on paydo qilasiz
Har kun har tun xoling ne deb surasiz
Jigarlarim deb doim jon kuyasiz
Biz uchun siz eng mukammal akasiz

Yiqilsam suyagan yolg'iz o'zingiz
Yerga qaratmayman aslo yuzingiz
Yaratganim uzoq qilsin umringiz
Sizga tirgak bo'lsin o'g'il qizingiz

Oila ro'zg'or deb tinmagan akam
Boshin egmasin hech bir anduh g'am
Allohim kuch bergin metin mustahkam
Baxtimizga sog' omon bo'ling har dam

DADAJONIM

Mehringizdir beminnat
Tinmay qilasiz mehnat
Biz deb chekdingiz zahmat
Dadajon sizga rahmat
Ne xohlasam doimo
Qilardingiz muhayyo
Orzuim qilib ro'yo
Dadam asragin Xudo
Siz mening davlatimsiz
Nur ila gavharimsiz
Qonun har bir so'zingiz
Yorug' qilay yuzingiz
Suyanganim siz tomon
Ey mehnatkash bog'bonim
Siz bor qolmas armonim
Mehribon dadajonim

